



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**T.Oqnazarov, R.Tugalov**

*Samarqand viloyat XTXQTMOHM o'qituvchilari*

### **O'QITUVCHILARNING INTERNET TARMOG'IDAN FOYDALANISH KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI**

Hozirgi paytda amalga oshayotgan global o'zgarishlar ta'lim va tarbiya sohasiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu bir tomondan, global o'zgarishlarni ob'ektiv jarayon sifatida inson hayoti sohalariga ta'sirini xolisona o'rganishni taqozo etadi. Ikkinchidan, global o'zgarishlar ta'lim tarbiya jarayonlariga ham o'zining ta'sirini ko'rsatayotganligi sababli uning bilan bog'liq bo'lgan yutuq va muammolarni bilish va tegishli xulosalar chiqarish amaliy ahamiyatga ega. Globallashuv ta'lim-tarbiyaning axborot kommunikatsiya tizimi, internet tarmoqlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bog'liq yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Ta'limni an'naviy usullari o'rnida interfaol usullarni qo'llash orqali uni samaradorligiga erishish dolzarb bo'lib turibdi. SHuningdek, globallashuv jarayonining ayniqsa, tarbiya sohasiga ko'rsatayotgan ayrim g'arazli nosog'lom g'oyaviy-mafkuraviy muammolarni ham keltirib chiqarmoqdaki, uni hisobga olmaslik mumkin emas

Hozirgi kunda kommunikatsion texnologiyalar jadal rivojlanishda davom etmokda va shunga mos ravishda xar soxada zamon talabi bilan o'zgarishlar amalga oshirilmokda. Xususan internet tarmogidan unumli foydalanish jarayonlarning global tus olishiga imkon yaratmokda. Zamon taraqqiyoti bilan hamohanglikda faoliyat yuritish uchun ushbu kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish buyicha bilim va kunikmalarni o'zlashtirib, doimo yangilarini qushib borish zarur bo'ladi. Xususan kompyuter va smartfonlarning kundan kunga taraqqiy etishi ulardan foydalanish bilim va ko'nikmalarini doimo shakllantirib borishni talab etmokda.



Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, mul'timedia vositalari, internet va intranet tarmoqlari, mobil aloqa apparatlari va tizimlari, ma'lumotlar omborini boshkarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchi asosiy jixoz kompyuterdir. Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o'qitish uchun birgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo'lib koldi. Avvallari televizor, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor va boshkalardan foydalanilgan bo'lsa, endilikda kompyuterning o'zi ularning funksiyalarini bajarish imkoniyatiga ega. SHuningdek, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi.

Hozirgi kunda o'qituvchining savodxonligi va intellektual salohiyatini shakllantirish bevosita ta'lim muassalarining moddiy-texnika va zamonaviy axborot texnologiyalari bazasini mustaxkamlash, yuqori sifatli o'quv adabiyotlar, darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlarini yaratish, elektron kutubxonalar tashkil etish bilan chambarchas bog'likdir. SHuning uchun ham o'qituvchiga zamonaviy bilimlar sari keng yul ochish, ta'lim tizimini takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan, shu jumladan Internet taomog'idan samarali foydalanish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

SHuning uchun ham hozirgi davrga kelib respublikamizda axborot-telekommunikatsion texnologiyalarini keng qo'llash orqali jamiyatni raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish maqsadida bir qator amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda aksariyat o'qituvchilarimiz bilimga chanqoqligi, o'qish, izlanish va jamoat ishlarida faolligi, ilmiy va ijodiy salohiyati bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishi bilan ham ajralib turadi. Ularning ehtiyojini talab darajasida amalga oshirishda internet texnologiya-larining o'rni beqiyosdir.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat yurgizayotgan o'qituvchilar o'z ixtisosligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi bilan birga hozirgi kunda barcha sohalarni keng qamrab olayotgan kompyuter texnologiyalari bilan bevosita muloqot qila oladigan, zamonaviy axborot texnologiyalarini amaliy faoliyatiga tatbiq eta olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa ta'lim jarayonini tashkil etishda internet texnologiyalaridan foydalanish va uni amaliy tatbiq etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimiz axborot bozorining asosiy iste'molchilari bo'lgan o'qituvchi o'zlarini qiziqtirgan savollarga javobni asosan Internetdagi elektron manbalar va veb-saytlardan qidirmoqda. Tabiiyki, bu ehtiyoj ularni Internet tomon etaklamoqda. Internet tarmog'iga ulanish va undan unumli foydalanish axborot kommunikativ texnologiya-larini amalda qo'llashdan iboratdir.

Internet texnologiyalari vositalari o'qituvchini o'zlarini qiziqish sohasiga, kasbiga va turli xil faoliyatiga tayyorlashga ko'mak berish bilan birga, ularni bilim olish, til o'rganish, intellektual savodxonligi va salohiyatini shakllantirishda, ya'ni bilim olishning zamonaviy usullari va texnologiyalaridan foydalanishga, bilim va



malakalarini oshirishda yangi yondashuvlarni qo'llashga, yangi g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

O'qituvchining intellektual salohiyatini oshirish, ularning bandligini ta'minlash, axloqiy va aqliy ko'nikmalarini oshirishda butunjahon Internet tarmog'idan kerakli ma'lumotlarni tanlash va ulardan maqsadli ravishda foydalanish muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchini izlanish va jamoat ishlarida faolligi, ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirishga bo'lgan intilishi ularni xalqaro Internet tarmog'idan foydalanish ehtiyojini yaratmoqda, chunki Internet tarmog'idan o'qituvchini qiziqtirgan barcha sohalari bo'yicha kerakli ma'lumotlarni, mavzularni, testlarni, referatlarni va har xil materiallarni topib olish imkoniyatini yaratadi, ya'ni o'qituvchiimizning internet bilan yanada mustahkam aloqa qilish, o'z veb-sahifalarini yaratish va boyitib borish, yangiliklardan boxabar bo'lish va ularni yoritish, muntazam ravishda o'z ustida mustaqil ishlash, ta'lim va boshqa sohalarga tegishli loyihalarni ishlab chiqish va unda qatnashish, turli anjuman va forumlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengayib borishiga olib keladi.

Internet tez va arzon axborot yoki ma'lumot olish, etkazish hamda qayta ishlashda beqiyos manba sanalishini, kundan-kun safi kengayib, foydalanuvchilar soni ortayotgan mazkur tizim dunyo hamjamiyatining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirayotgani, ko'proq o'qituvchi kiradigan saytlarini tubdan yangilash zarur, ya'ni o'qituvchini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mahoratini oshirish, milliy saytlarimizni rivojlantirish va internetda o'qituvchiimizning qiziqishiga mos ma'lumotlarni ko'paytirish, ta'lim tizimidagi saytlarning ma'lumotlar bazasini sog'lom tarzi talablariga mos ravishda giyohvandlik, kashandalik, ichkilikbozlikka qarshi kurashga oid axborot ma'lumotlar bilan boyitish kerak.

Bundan tashqari barcha ta'lim muassalaridasa forumlar tashkil etish, o'qituvchi ishtirokida anjumanlar o'tkazish, milliy veb-saytlarimizdan joy olgan maxsus sahifa va onlayn muloqotlarda muntazam faol ishtirok etib borish, shuningdek o'qituvchida internetdan to'g'ri foydalanish madaniyati va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan axborotlarni berib borish, o'quv-kurslar tashkil etish va o'qituvchining internet manbalaridan foydalanish darajasini oshirishga doir tadbirlarni ta'lim muassasalari, keng jamoatchilik va mahalliy davlat hokimiyati organlari birgalikda amalga oshirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### Adabiyotlar

- 1.Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
- 2.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.y
- 3.Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., [Usmonboeva M.H.](#), Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriëti, 2015.
- 4.Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
- 5.Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006.